HAMKORLIK MEMORANDUMI

Toshkent shahri «16» yanvar 2023y.

Toshkent shahar Madaniyat Bosh boshqarmasi tasarrufidagi MirzoUlug`bek tumani 2-sonli Bolalar musiqa va san'at maktab direktori nomidan S.S.Adilova,bir tomondan (keying o'rinlarda 1 -Tomon deb yuritiladi) va ikkinchi tomondan Toshkent shaharidagi Prezident maktabi direktori nomidan Shakirova S.B. (keying o'rinlarda 2- Tomon deb yuritiladi) o'z huquq va vakolatlari doirasida o'zaro hamkorlik bo'yicha birgalikdagi va muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida kelishib oldilar va ushbu Memorandumni quyidagilar bo'yicha tuzdilar:

1. Hamkorlik maqsadi

1.1. Oliy ma`lumotli kadrlar bilan ta`minlash.
1.2. O'zaro hamkorlik to'g'risidagi ushbu Memorandumning maqsadi qo'shma ijodiy, ta'lim va madaniy tadbirlarni o'tkazishdan iborat.
1.3. Hamkorlik tenglik va o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi.

2. Tomonlarning hamkorlik yo'nalishlari va shakllari

2.1. Musiqiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining tajriba almashish va kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun qo'shma mahorat darslarini tashkil etish va o'tkazish;
2.2. Hamkorlikdagi faoliyatni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borish.
2.3. Oliy ma`lumotli kadrlarni ish bilan ta`minlash.

3. Tomonlarning o'zaro ta'siri

3.1. Tomonlar vakolatli vakillari orqali ushbu Memorandum bandlarini bajarish bo'yicha hamda yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqish va qo'shma tadbirlarni o'tkazish yuzasidan o'zaro muloqot qiladilar.
3.3. Ushbu memorandumning imzolanishi:

- Tomonlarga bir –biriga nisbatan hech qanday moliyaviy va boshqa majburiyatlar yuklatilmaydi, faqat ushbu Memorandum va tomonlarning yozma kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno;
- Kasbiy va xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda tomonlarning erkinligiga cheklovlar qo'yilmaydi;
- Tomonlarning harqanday faoliyat turlarini, jumladan, o'zaro hamkorlik doirasida tomonlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mustaqil ravishda bajarishiga cheklovlar qo'yilmaydi;
- Tomonlarning boshqa hamkorlik va uyushmalarda ishtirok etishiga cheklovlar qo'yilmaydi.

4. Yakuniy qoidalar

4.1. Zarurhollarda, Tomonlar ushbu Memorandumda ko'zda tutilgan Tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning ayrim yo'nalishlarini amalda bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shma harakatlar rejalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.
4.2. Ushbu Memorandum qoidalaridan kelib chiqadigan harqanday bildirishnomalar (xabarlar, ma'lumotlar va h.k.) electron pochta orqali yoki zarurhollarda, boshqa yo'l bilan (pochta, faks, va boshqalar) har bir Tomon tarafidan tayinlangan shaxslarga yuboriladi.
4.3. Tomonlar o'rtasidagi tortishuvlar va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasida muzokaralar yoki orqali hal qilinadi. Ushbu Memorandum bo'yicha harakatlarni amalga oshirish uchun tuzilgan shartnomalar (ruxsatnomalar)ni bajarish davomida kelib chiqadigan nizolar va

kelishmovchiliklarni hal qilish tartibi ko'rsatilgan shartnomalar (bitimlar) bilan belgilanadi.

4.4. Tomonlar iloji boricha samarali harakat qiladi va bir – birining manfaatlarini hisobga olgan holda, ushbu Memorandumda ko'zda tutilgan qoidalar va tadbirlarni amalga oshiradi.

4.5. Har bir Tomon, boshqa tomon bilan kelishilgan holda, uchinchi tomonni ushbu Memorandum qoidalarini bajarishga jalb qilishi mumkin.

4.6. Ushbu Memorandumga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar Tomonlarning qarori bilan yozma ravishda kiritilishi mumkin va bu Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

4.7. Ushbu Memorandum 3 yillik muddatga tuziladi. Agar ushbu Memorandum, Tomonlardan biri ushbu bandda nazarda tutilgan muddatlar tugagunga qadar yoki tegishli yangilanish muddati tugashidan oldin uning bekor qilinganligini e'lon qilmasa, Memorandumning amal qilish muddati avtomatik ravishda bir yilga uzaytiriladi.

4.8. O'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandumga o'zgartirishlar harqanday vaqtda tomonlarning o'zaro yozma kelishuvi bilan amalga oshirilishi mumkin.

4.9. Ushbu Memorandum har bir tomon uchun bir nusxadan, 2 (ikki) nusxada o'zbek tilida tuzilgan.

5. Tomonlarning imzo va rekvizitlari:

2 – tomon	**1 - tomon**
Tashkent Prezident maktabi	**Toshkent shahar 2-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi**
Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumani Do`rmonyo`li ko`chasi 31 uy	Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tumani, Sayram ko`chasi 19-uy
Telefon: (71) 207-99-98	Telefon: (71) 268-59-51
Direktor: Shakirova Sevara Boxodirovna	**Direktor: S.S.Adilova**